



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**



**BUXORO OZIQ-OVQAT VA YENGIL SANOAT
TEXNOLOGIYASI INSTITUTI**

«ELEKTROENERGETIKA» KAFEDRASI.

Nurov H.I.

**«O'TA KUCHLANISH VA IZOLYATSIYA»
FANIDAN MA'RUZALAR MATNI**

BUXORO – 2006 yil.

TAQRIZCHILAR:

“Buxoro elektr tarmoqlari” korxonasi “O’ta kuchlanish va izolyatsiya” bo’limi boshlig’i
O’sarov Q.

«Elektroenergetika» kafedrası mudiri,
dots.N.N.Sadullaev.

№1 sonli 25.08.2006 yil "Elektroenergetika" kafedrasining yig’ilishida tasdiqlangan.

Buxoro oziq-ovqat va engil sanoati texnologiyasi institutining uslubiy kengashining №__ raqamli «__»_____ 2006 yil majlisi bayonnomasida tasdiqlangan.

A N N O T A T S I Y A

Ushbu ma’ruza matnida "O’ta kuchlanish va izolyatsiya" fanidan "Elektroenergetika" yo’nalishida tahsil olayotgan bakalavr talabalarga o’ta kuchlanish texnikasi, yuqori kuchlanishli elektr uskunalarni izolyatsiyasi va o’ta kuchlanishdan himoyalash vositalarini nazariy asoslari berilgan. O’ta kuchlanishli muhitlarda sodir bo’ladigan jarayonlar tavsiflab berilgan.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
MAVZU №1: ELEKTR TIZIMDA IZOLYATSIYA.....	7
MAVZU №2: ELEKTR TIZIMLARDA ICHKI O'TA KUHLANISHLAR.....	9
MAVZU №3: O'TA KUHLANISHLARNI CHEGARALASH.....	15
MAVZU №4: YUQORI KUHLANISH TEXNIKASIDA GAZLI IZOLYATSIYA.....	25
MAVZU №5 : NOMUSTAQIL GAZ RAZRYADI.....	28
MAVZU №6 : O'TA KUHLANISHLI TARMOQLARDA TOJ RAZRYADI.....	32
MAVZU №7: ELEKTR YOYNI PAYDO BULISHI.....	34
MAVZU №8: HIMOYA RAZRYADNIKLARI.....	40
MAVZU №9:PODSTANTSIYA USKUNALARINING IZOLYATSIYASI.....	46

KIRISH

Mavzu rejasi:

1. O'ta kuchlanish va izolyatsiya fani maqsadi va vazifalari.
2. O'zbekistonning o'ta kuchlanishli elektr tarmoqlari.
3. O'ta kuchlanishni asosiy tasnifi.

Foydalaniladigan adabiyotlar.

1. Elektrotexnik spravochnik. 3-tom, kniga pervaya, razdel 38. (Pod obshey redaktsiey professorov MEI) M.: Energoatomizdat, 1988.
2. Texnika vysokix napryazheniy. Pod obshey red. D.V. Razevige, M.: Energiya, 1991.

Elektr energetik tizimlarda o'ta yuqori kuchlanishlarni qo'llash elektr energiyasini kam isroflar bilan uzatish imkonini beradi. Ammo, o'ta yuqori kuchlanishlarni qo'llash ko'pgina fizikaviy jarayonlar bilan bog'liq kompleks masalalarni hal qilishni taqozo qiladi. Jumladan, eksplo'tatsiya jarayonida yuqori kuchlanishlarni izolyatsiyaga ta'siri va izolyatsiyaga ta'sir etuvchi chegaraviy qiymatlarni aniqlash «O'ta kuchlanish va izolyatsiya» fanini asosiy maqsadi hisoblanadi. Elektr uskunalarni ishlash muddatini ta'minlovchi izolyatsiyalarni qo'llash va izolyatsiyani samarali himoyalash vositalarini ishlab chiqish fanning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Respublikaning energetika sohasidagi asosiy masalalaridan biri yukori kuchlanishli elektr energiyasi ishlab chiqarib uzoq masofaga uzatishdan iboratdir. Hozirgi vaqtda elektr tarmoqlaridagi yuqori kuchlanish, ya'ni 35-500 kV ko'tarib bir necha ming km ga uzatmoqda. O'zbekiston energetika tizimi 500 kV li havo EUY bilan birlashtirilgan. Jumladan, Buxoro viloyati Qorako'l-G'uzor va Qorako'l-Mori 500 kV li havo EUY bilan ta'minlangan.

Hozirgi paytda elektr energiyasi turbogeneratorlarda 1000-1200 mVt, gidrogeneratorlarda 500-640 mVt gacha ishlab chiqarilmoqda. Elektr uzatish liniyalarda yuqori quvvatli ishonchli elektr jihozlari: generatorlar; transformatorlar; kommo'tatsiya apparatlari ishlab turibdi. Davomli va qisqa vaqtda hosil bo'ladigan

o'ta kuchlanishlar elektr tarmoqdagi izolyatsiyalarni ishonchli qilib ta'minlash kerak bo'ladi.

- 1) Tashqi izolyatsiya bu ikkala o'tkazgichlarni havo orqali izolyatsiyasi tashqi yuzalar izolyatsiyalari ya'ni izolyatorlar ajratgichlarning kontaktlari orasidagi izolyatsiya va hokazo.
- 2) Ichki izolyatsiya bu transformator elektr mashinalari kabellarining izolyatsiyalari, germetizatsiyali izolyatsiyalar va hokazolar.

Hozirgi vaqtda elektr tarmoqlarida 35kV gacha bo'lgan kuchlanish bilan elektr energiyasini kabellar yordamida uzatish keng tarqalgan, kuchlanishi 330kV va undan yuqori bo'lgan kuchlanishlar o'ta yuqori kuchlanishlar deyiladi. SHuning uchun elektr energiyasini uzoq masofalarga uzatishda yuqori kuchlanish transformatorlar va aparaturalaridan foydalaniladi. Normal sharoitda elektr qurilmalarining izolyatsiyasiga fazaviy normal kuchlanishlar ta'sir qiladi. O'tkinchi jarayonlar, qisqa to'tashuv vaqtida elektr tarmoqlarining izolyatsiyasiga o'ta kuchlanish deyiluvchi kuchlanish ta'sir qiladi.

- 1) Ichki o'ta kuchlanish
- 2) Tashqi (atmosferaviy) o'ta kuchlanish


Elektr sistemalarining biror sabab bilan faqat o'zida bo'luvchi o'ta kuchlanishga ichki o'ta kuchlanish deyiladi.

CHaqmoq ta'sirida bo'ladigan o'ta kuchlanishlar atmosferaviy o'ta kuchlanish deyiladi.

Ichki o'ta kuchlanishlar ikki turga bo'linadi:


- 1) Kommo'tatsion o'ta kuchlanish
- 2) Rezonans

Elektr energiyasini uzoq masofalarga uzatishda qo'yilgan kuchlanish shu masofaning o'zgarishiga va o'zgargan elektr energiyasining quvvatiga qarab tanlanadi. Elektr tarmoqlarida bo'lgan o'ta kuchlanishlarning oldini olishga elektr sistemasining neytrali juda katta ta'sir qiladi. Elektr sistemasining neytrali erga ulangan yoki erdan izolyatsiya qilingan bo'lishi mumkin. Agar sistemaning neytrali erga ulangan bo'lsa, u holda bir fazali qisqa to'tashuv toki transformator neytrali orqali oqib o'tadi.




(1-rasm))

Agar transformator neytrali erdan izolyatsiya qilingan bo'lsa bular fazali qisqa to'tashuv toki fazalarning sig'implari orqali tarqalgan bo'ladi.



(2-rasm)

Ba'zi hollarda transformatorning neytrali biror g'altak orqali erga ulangan bo'ladi va bu bilan faza sig'implari yordamida rezonansga erishadi va qisqa to'tashuv toki kompensatsiyalanadi hamda bu paytda transformatorning neytrali orqali juda kichik tok oqib o'tadi.



(3-rasm)

NAZORAT SAVOLLARI.

1. O'ta kuchlanish va izolyatsiya fani maqsadi va vazifalari aytib bering.

2. O'zbekiston o'ta kuchlanishli elektr tarmoqlarini tavsiflab bering.
3. O'ta kuchlanishni tasniflab bering.

Tayanch iboralar. O'ta kuchlanish, izolyatsiya, ichki o'ta kuchlanish, tashqi o'ta kuchlanish.

MAVZU №1. ELEKTR ENERGETIK TIZIMDA IZOLYATSIYA.

Mavzu rejasi:

1. Ichki va tashqi izolyatsiya.
2. Maksimal ishchi kuchlanish.
3. Ichki va tashqi izolyatsiyalarni asosiy turlari.

Foydalaniladigan adabiyotlar.

1. Elektrotexnik spravochnik. 3-tom, kniga pervaya, razdel 38. (Pod obshey redaktsiey professorov MEI) M.: Energoatomizdat, 1988.
2. Texnika visokix napryajeniy. Pod obshey red. D.V. Razevige, M.: Energiya, 1991.

Ichki va tashqi izolyatsiyalar. Elektr uskunalarning izolyatsiyasi ikki turga bo'linadi: tashqi va ichki izolyatsiya. Tashqi izolyatsiyaga elektr o'tkazuvchi qismlar orasidagi havo qatlamlari kiradi. Masalan, liniyalar orasidagi, tayanch va liniyalar, EUY lar orasidagi orasidagi izolyatsiya oraliqlari tashqi izolyatsiyaga kiradi. Ichki izolyatsiya esa elektr uskuna korpusini ichida joylashgan, har xil izolyatsiya materiallaridan tayyorlangan izolyatsiyalar kiradi. Masalan, transformator chulg'amlari, o'ramlaridagi izolyatsiyalar kiradi. Bunda gazsimon, suyuq va qattiq dielektriklar kombinatsiyasi qo'llanishi mumkin.

Ekspluatatsiya jarayonida yuzaga keladigan katta elektr maydonning kuchlanganligi ta'sirida Elektr uskunalarni izolyatsiyani qisman yoki to'la yo'qolishini kuzatish mumkin. Bunda tashqi va ichki izolyatsiyani emirilish holatlari har xil bo'lishi mumkin.

Elektr teshilish hodisasidan keyin, teshilish sababini bartaraf etgandan so'ng havo o'z izolyatsiya xossasini qayta tiklaydi. Noqulay tomoni shundaki, elektr yoy saqlanib qolishi mumkin.

Har bir elektr uskuna izolyatsiyasiga muvofiq nominal kuchlanishga ega bo'lib, ishchi kuchlanishi o'zgarib turishi mumkin. Ammo, xavfsiz va ishonchli ish rejimi 1-jadvalda ko'rsatilgan maksimal ishchi kuchlanish chegarasida bo'ladi. Bu kuchlanishdan katta qiymat o'ta kuchlanish deb aytiladi va bu kuchlanishlardan elektr uskunalarni himoyalash talab etiladi. O'ta kuchlanishlarni shartli ravishda ichki va tashqi o'ta kuchlanishlarga ajratishadi.

1-jadval

Nominal kuchlanish U_{nom} , kV	3	6	10	20	35	110	150	220	330	500	750	1150
Maksimal ishchi kuchlanishi, U_{max}	3,5	6,9	11,5	23	40,5	126	172	252	363	525	787	1200
K	1,1									1,28		

Ichki o'ta kuchlanishlar avariya paytida yoki normal ish rejimida bo'ladigan kommo'tatsiyalar tufayli vujudga keladigan o'tish jarayonlarida reaktiv (induktivlik va sig'imli) elementlarda to'plangan energiya sababli yuzaga keladi. Bu o'ta kuchlanishlarni ahamiyati elektr tarmoqlarni parametrlarini qiymatiga bog'liq bo'ladi. Tashqi o'ta kuchlanishni asosiy sababi bu momoqaldiroq paytidagi yashin hisoblanadi. Ochiq havoda joylashgan elektr uskunalarni ustunli YAshin qaytargichlar vositasida himoyalanaadi. Havo uzatish yo'llarini, uzun shina o'tkazgichlarni, odatda YAshin qaytaruvchi troslar yordamida himoyalanaadi.

Havo uzatish yo'llarini yashinga bardoshlilikini 100 soat momoqaldiroqi soatda 100 km masofadagi liniyadagi o'chirishlar soni bilan aniqlanaadi.

Elektr kurilmalarning izolyatsiyasining mustaxkamligi nominal kuchlanishlar va elektr liniyasining Uzoqligiga kura kabul kilinadi. Elektr sistemalardan paydo buluvchi izolyatsiyalarni umuman 2 xil bulishi mumkin.

- 1) O'chirgich, qisqa to'tashtirgich, saklagichlarni ulanishi va ajralishi natijasida hosil bo'luvchi o'tkinchi jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan kommo'tatsion o'ta kuchlanish.
- 2) Elektr sistemalarida rezonans tebranishlari Bilan bog'liq bo'lgan rezonans o'ta kuchlanish. Bu o'ta kuchlanishlar uz navbatida quyidagi bo'limlarga bo'linadi: kommo'tatsion o'ta kuchlanishlar guruxiga:

1. Sigimiy nagruzkani, ya'ni salt ishlayotgan kata uzunlikdagi liniyani va kondensator batareyasini ajratishda paydo buladigan o'ta kuchlanishlar.
2. Katta uzunlikdagi liniyani avtomat qayta ulash (APV) paytida xosil buluvchi o'ta kuchlanishlar.
3. Kichik induktiv tokni va salt ishlayotgan transformatorni asinxron dvigatelni va reaktorni ajratishda xosil buluvchi o'ta kuchlanishlar.

Rezonansli o'ta kuchlanishlar guruhiga:

1. Sanoat chastotasiga Uzoq masofadagi elektr uzatish liniyalarining simmetrik va nosimmetrik rejalashda xosil buluvchi o'ta kuchlanish.
2. Elektr dvigatellarining simmetrik rejimda o'z-o'zidan uygonishi natijasida xosil buluvchi o'ta kuchlanish.
3. Nosimmetrik rejimli yukori garmonikalarda xosil buluvchi o'ta kuchlanishlar.
4. YUkori va past garmoniyalaridan magnitoprovod parametrlarning nochizigiyligi xisobiga xosil buluvchi ferrarezonans o'ta kuchlanishlar. O'tkinchi jarayon mobaynidagi istalgan maksimal kuchlanish quyidagicha aniklanadi:

$$U_{\max} = K_{y\partial} \cdot U_{ycm} = K_{y\partial} \cdot K_{ycm} \cdot U_{\phi}; \quad (1.)$$

Bu ifodada K_{ud} – udarniy koeff.

K_{ust} - ustanovichniy koeff.

$K_p = K_{ud} K_{ust}$ - ichki o'ta kuchlanishning karraligni bildiradi.

Uzoq liniyalarida rezonans xodisalarining oldini olish choralari.

Uzoq liniyalardagi rezonans xodisalarining amplitudalari 2 U_f dan oshmasa xam, uzining davomiyligi bilan 6irinchi navbatda transformatorlar uchun xavflidir. Xuddi shunday ular razryadlanish uchun xam xavflidir, chunki rezonans o'ta kuchlanishlari natijasida razryadlanishdan

utuvchi tokning xam davomiyligi katta.

Himoya relesi yoki avtomatika sistemalari yordamida rezonans o'ta kuchlanishining davomiyligi bir nechta davrga kamaytirish mumkin. 2 tomonlama elektr znergiyasi bilan ta'minlovchi, Uzoq liniyalarda bir tomon elektr energiyasini ta'minlamay kolganligi uchun ba'zi

iste'molchilarni ajratish eng xavfli xolatga olib keladi, bunday Uzoq liniyalarda iste'molchini ajratish uchun xar 2.va tomondagi uchirgichlarga signal yuboriladi.

a) Eng yukori kuchlanishli liniyaga reaktorni ulash.

b) Eng yukori kuchlanishli avtotransformatorining past kuchlanishchulgamiga reaktorni ulash,

Kuchlanish oshganda uchkun oralik (iskravoy promejutok) ishga tushib liniyaga reaktor ulanadi va bir paytda shunt kilingan uchirgichni ulash uchun impuls yuboriladi

Rezonans o'ta kuchlanishi cheklanmagandan keyin yana uchirgich ajraladi. Eng yukori kuchlanish elektr uzatmalaridagi ichki o'ta kuchlanishdan Himoya kilish amaliyotiga kura, eng ogir xolatlarda kommunitatsion (kombinirovanniy) razryadnik bilan-reaktorni uchkun oraligi yordamida ulash kuzda tutiladi .CHunki razryadnik utkinchi jarayonlar natijasida paydo buluvchi qisqa vaktli o'ta kuchlanishli cheklaydi, reaktor esa razryadnikdan utuvchi tokni kamaytirib, elektr eyini tez va butunlay uchirishni ta'minlaydi.

NAZORAT SAVOLLARI.

1. Ichki va tashqi izolyatsiya nima?
2. Maksimal ishchi kuchlanish nima?
3. Ichki va tashqi izolyatsiyalarni asosiy turlarini sanab bering.

Tayanch iboralar. Ichki izolyatsiya, tashqi izolyatsiya, maksimal ishchi kuchlanish, yashinga bardoshlilik, yashin qaytargich.

MAVZU №2. ELEKTR TIZIMLARDA ICHKI O'TA KUCHLANISHLAR.

Mavzu rejasi:

1. Kommo'tatsiya o'ta kuchlanishlari.
2. Elektr tarmoklarini manbaga qayta ulanishdagi o'ta kuchlanish.
3. Elektr tarmogini manbadan uzilishidagi o'ta kuchlanish.
4. Erga qisqa to'tashgan liniyalarni uchirishdagi o'ta kuchlanish jarayoni.
5. Elektr tarmogining oxirida kuchlanishni ortib ketishi.
6. Erga qisqa to'tashuv natijasida liniyalarda sodir bo'ladigan turgun o'ta kuchlanishi.
7. Fazalarni nosimmetrik ulanishidagi natijasida sodir bo'ladigan turgun o'ta kuchlanish.

Foydalaniladigan adabiyotlar.

1. Elektrotexnik spravochnik. 3-tom, kniga pervaya, razdel 38. (Pod obshey redaktsiey professorov MEI) M.: Energoatomizdat, 1988.
2. Texnika visokix napryajeniy. Pod obshey red. D.V. Razevige, M.: Energiya, 1991.

Elektr sistemalarida ichki o'ta kuchlanishlar. Elektr kuchlanishlarining izolyatsiyasining mustazkamligi nominal kuchlanishlar va elektr uzatish liniyasining Uzoqligiga karab tanlanadi. Elektr sistemalarida paydo buluvchi ichki o'ta kuchlanishlar ikki xil buladi

- 1) O'chirgich, qisqa to'tashtirgich, saklagichlar va ajratgichlar natijasida xosil buluvchi utkinchi jarayonlar bilan bo'lgan kommo'tatsion o'ta kuchlanishlar.
 - 2) Elektr sistemalarida rezonans tebranishlari bilan bog'liq bo'lgan rezonans o'ta kuchlanishi, bu o'ta kuchlanishlar uz navbatida quyidagi o'ta kuchlanishlarga bo'linadi. Kommo'tatsion va rezonans o'ta kuchlanishlar:
1. Kommo'tatsiya o'ta kuchlanishi. Bu o'ta kuchlanish 3 ta buladi

- A) sigimning nagruzkali ya'ni salt ishlayotgan katta Uzoqlikdagi tarmokni va kondensator batareyasini ajratishda xosil bo'lgan o'ta kuchlanish.
- B) Katta uzunlikdagi liniyani kushi shva avtomatik qayta ulash (APV) paytida xosil bulga no'ta kuchlanish
- C) Kichik induktiv tokni va salt ishlayotgan transformator asinxron dvigatel va reaktorlarni ajratishda xosil bulga no'ta kuchlanishlar kiradi.

2. Rezonans o'ta kuchlanish.

- A) Sanoat sharoitida Uzoq mavsumda elektr uzatish liniyalarining simmetrik va nosimmetrik rejimlarida xosil bo'lgan o'ta kuchlanishlar
- B) Elektr dvigatellarining simmetrik rejimda uz-uzidan uygonishi natijasida xosil buluvchi o'ta kuchlanishlar.
- C) Nosimmetrik rejimli yukori garmoniyalarida xosil buluvchi o'ta kuchlanish.
- D) YUkuri va past garmoniyalarda magnitoprivod parametrlarining nochizikli xolatda xosil bo'lgan ferrerezonans o'ta kuchlanish.

Utkinchi jarayon paytida istalgan maksimal kuchlanish.


$$U_{\max} = K_{y\partial} \cdot U_{ycm} = K_{y\partial} \cdot K_{ycm} \cdot U_{\phi}; \quad (1.)$$

Bu ifodada K_{ud} – udarniy koeff.

K_{ust} - ustanovichniy koeff.

$K_p = K_{ud} K_{ust}$ - ichki o'ta kuchlanishning karraligni bildiradi.

Elektr tarmoklarini ulashdagi kommo'tatsion o'ta kuchlanish. Xar kaday tarmokni ulash deyarli katta bulmagan kommo'tatsion o'ta kuchlanishga olib keladi. Quyidagi sxema yordamida kommo'tatsion o'ta kuchlanish xususiyatlarni tushuntirish mumkin.



-rasm. EUY ning keltirilgan sxemasi.

(4-rasm)

Bu sxemada R_l karshiligi X bo'lgan elektr uzatish liniyasi reaktiv karshiligi x orkali uzgaruvchan sinusoidal kuchlanishli manbaga ulangan.

Uzunligi 200-300 km ga teng elektr tarmoklarida xosil buluvchi o'ta kuchlanishni Himoyalash uchun T shaklidagi sxema, uzunligi 300-400 km va undan kuprok liniyalar uchun P shaklidagi sxemalardan foydalaniladi:

Umumiy tebranish konturdagi kondensator kuchlanishi quyidagicha topiladi.

$$U = E_{\cos} (\tau - \varphi) \quad (2.)$$

Liniyani uzgaruvchan kuchlanish manbai

$$U_{y_{ma.ky\chi l}} = U_{y_{cm}} \cdot (\cos \tau - l \cdot \delta \cos \varpi_0 \cdot \tau) \quad (3.)$$

bu ifodada

δ – so'nish koeffitsienti

Ulangan kondensatordagi kuchlanishning maksimal kiymati ekikommo'tatsion o'ta kuchlanish shu konturning xususiy chastotasiga ω_0 ga bog'liq buladi.

Tajriba shuni kursatadiki, kommo'tatsiya paytida faza burchagi sakrash Bilan uzgaradi. Kommo'tatsion o'ta kuchlanish bu tebranish konturidagi kondensarda teshilish paytida eng katta kiymatga erishadi. Kondensatordagi maksimal kuchlanish.

$$U = \frac{E}{1 - \frac{1}{\omega_0^2}}; \quad \delta = \frac{R}{2x}; \quad (4.)$$

Liniya boshlanishidagi tok va kuchlanish liniya oxiridagi tok va kuchlanish Bilan bog'lovchi tenglama quyidagicha.

$$U_1 = U_2 \cdot \cos \lambda + j(I_2 z \cdot \sin \lambda) \quad (5.)$$

$$I_1 = I_2 \cos \lambda + j \left(\frac{U \lambda}{Z} \sin \lambda \right) \quad (6.)$$

Kurilayotgan sxemada $\sin \lambda = 0$ bo'lganligi uchun tenglamalar quyidagi kurinishga ega

$$U_1 = U_2 \cdot \cos \lambda \quad (7.)$$

$$I_1 = j \frac{U_2}{\lambda} \sin \lambda \quad (8.)$$

Agar liniya uzunligi 1500 km bulsa kirish karshiligi sigimiy xarakterga ega buladi. liniya boshlanish kuchlanishini quyidagicha yozish mumkin.

$$U = E \frac{X_{\lambda}}{X_{yp}} = \frac{E}{1 - \frac{1}{\omega_0^2}}; \quad (9.)$$

Liniya boshlanishidagi kuchlanish U_2 ning liniya oxiridagi kuchlanish U_1 ga nisbatan kuchlanishni uzatish koefitsenti deyiladi.

Elektr liniyalarini ulashdag kommo'tatsion o'ta kuchlanish. Xar kanday liniyani ulash deyarli katta bulmagan kommo'tatsion o'ta kuchlanishga olib keladi. Quyidagi sxema yordamida kommo'tatsion o'ta kuchlanishni xususiyatlarini urganish mumkin.

1. Kommo'tatsiya o'ta kuchlanishlari qanday bo'ladi.
2. Elektr tarmoklarini manbaga qayta ulanishdagi o'ta kuchlanish
3. Erga qisqa to'tashgan liniyalarni uchirishdagi o'ta kuchlanish jarayoni tavsiflab bering.
4. Elektr tarmogining oxirida kuchlanishni ortib ketishi qanday sodir bo'ladi?.
5. Erga qisqa to'tashuv natijasida liniyalarda sodir bo'ladigan turgun o'ta kuchlanishi.

Tayanch iboralar. Kommo'tatsiya o'ta kuchlanishi, rezonans o'ta kuchlanishi, turg'un o'ta kuchlanish.

MAVZU №3: O'TA KUCHLANISHLARNI CHEGARALASH.

Mavzu rejasi:

1. O'ta kuchlanishni chegaralashni asosiy usullari.
2. O'ta kuchlanishni chegaralashni asosiy vositalari.
3. O'ta kuchlanishni chegaralashni asosiy sxemalari.

Foydalaniladigan adabiyotlar.

1. Elektrotexnik spravochnik. 3-tom, kniga pervaya, razdel 38. (Pod obshey redaktsiey professorov MEI) M.: Energoatomizdat, 1988.
2. Texnika visokix napryajeniy. Pod obshey red. D.V. Razevige, M.: Energiya, 1991.

Qisqa vaktli o'ta kuchlanishlar nominal kuchlanishdan. 3-3,5 marta kata buladi. Uzoq davom etuvchi o'ta kuchlanish muljallangan kuchlanishda 2-3 marta katta buladi. ichli kuchlanishlarni cheklash quyidagilarga asoslangan.

- 1) Xavfli xolatlarga olib keluvchi sxemalardan foydalanmaslik .
- 2) O'ta kuchlanish paytida amplitudaning keskin oshishiga yul kuymaslik .
- 3) Utkinchi jarayonlarga xosil buluvchi kuchlanishlarni cheklash .
- 4) O'ta kuchlanish davomiyligini avtomatik sistema eki rele Himoyasi yordamida cheklash .

O'ta kuchlanishlar orkali amalda quyidagi sxemalardan foydalaniladi .

1. Kichik tranformatsiyalash koeffitsientiga ega bo'lgan transformatorlardan foydalanish .
2. ishlayotgan generatorlarning sonini oshirish .
3. yukori va o'ta kuchlanishda urnatilgan reaktorlardan foydalanish .
4. ulchov elektromagnitli kuchlanish transformatorlaridan iloji boricha kam foydalanish .
5. transformatorning yukori kuchlanish tomonida iloji boricha viklyuchateldan foydalanish .

6. kuchlanishi 500 kV ga muljallangan elektr tarmoklarida va podstantsiyalarda o'ta kuchlanish oldini olish uchun transformatorning tomonlariga ulanuvchi reaktorlardan foydalaniladi .

O'ta kuchlanish paytida kimmabaxo transformator avtotransformator xavf ostida kolishi mumkin, shuning uchun xozirgi paytda kuchlanishi 330 kVt gacha bo'lgan tarmoklarda vklyuchatel ishlatiladigan sxemalardan foydalaniladi .

Izolyatsiya materiallarining tavsiflari. Dielektrik materiallari ekspluatatsiya davrida katta kuchlanishlar ta'sirida qolib, elektr maydon kuchlari ta'sirida yemirilishi mumkin. Bu hodisa dielektrikning (buzilishi) teshilishi deyiladi. Dielektrik teshilganda u kuchlanishiga bardosh berish qobiliyatini yo'qotadi, chunki teshilgan joydan buziladi va elektr tokini o'tkazadi.

Dielektrik yuqori kuchlanishiga bardosh berish qobiliyati elektr maydon kuchlanganligi bilan aniqlanadi. Odatda E_t ta'sirida dielektrik teshiladi va uni elektr mustahkamligi deyiladi.



$$E_t = \frac{U_t}{h} \quad (10.)$$

$$[E_t] = [v/m]$$

bu erda h -dielektrik qalinligi [mm],

U_t -dielektrikni teshuvchi kuchlanish [B].

Dielektrikning elektr mustahkamligi E_t temperatura va elektr kuchlanishni ta'sir vaqtiga bog'liq:



(5-rasm)

Bu yerdan xulosa: T katta bo'lganda, E_t kichik (5-rasm) bo'lganda, dielektrikni teshish uchun ko'p vaqt kerak.


Dielektrikni teshilish jarayoni uning qizish jarayonida yuz berishi natijasida ham ro'y berishi mumkin. Bunda dielektrikning qarshiligi uzluksiz kamayib, tok ko'payadi. Natijada uning temperaturasi oshib yemiriladi. Bunday teshilish issiqlikdan teshilish deyiladi.

Temperatura kichik bo'lganda, elektr maydon kuchlanganligi E_t oshishi bilan dielektrikda erkin elektronlar miqdori oshib ketadi. Natijada dielektrik teshiladi. Bunday teshilish elektr teshilish deyiladi.

Gazsimon dielektriklar guruxiga havo, azot N_2 , H_2 , O_2 , CO_2 , elegaz SF_6 va O kiradi.

Ular kondensatorlarga, yuqori kuchlanishli havoli uzgichlar va O dielektriklar sifatida ishlatiladi.

Ko'pincha elektr uzatish liniyalarida binafsha rangli yorug'lik paydo bo'lib, qandaydir qars-qurslar eshitilib qoladi. Bu havo tarkibining buzilishi va uning elektr mustahkamligini pasayishidan darak beradi.



Agar qattik dielektrik ichida havo kirib qolgan bo'lsa, unda har bir qatlamda kuchlanganlik, ya'ni elektr mustahkamlik quyidagicha bo'ladi:

$$\frac{E_1}{E_2} = \frac{\varepsilon_2}{\varepsilon_1} \quad (11.)$$

ε_1 va ε_2 - bu erda mos ravishda gaz va qattiq dielektrlarning dielektrik singdiruvchanliklari bo'lib, E_1 va E_2 va ularning elektr mustahkamligi.

Bu tenglamadan xulosa shuki, qattiq dielektrikdagi havo 2-8 marotaba katta E ga uchraydi. Natijada dielektrik teshiladi va energiya isrof bo'ladi.

Suyuq dielektrlar ikki xil bo'ladi:

1. Neftdan olingan moylar
2. Sintetik moylar

Suyuq dielektrlarning asosiy vazifalari:

1. Kuchlanish transformatorlari, moyli vklyuchatellari, kondensatorlari va b. elektr asbob-uskunalarining ichki qismini to'ldirish.
2. Elektr mustahkamligini oshirish
3. Issiqlik beradigan muhitni yaratish (masalan, transformatorlarda)
4. Elektr yoyni o'chirish (masalan, moyli o'chirgichlarda)

Odatda suyuq dielektrlarning vakuum ostida asbob-uskunalarda qo'yiladi. Ular izolyasiyaning g'ovak qismlarida shimirib, materialning elektr mustahkamligini oshiradi.

Neftli moylar 3 guruxga bo'linadi:

1. Transformatorlar va yuqori voltli o'chirgichlarga ishlatiladigan neftli moylar.
2. Kondensatorlarning qog'oz izolyasiyasini shimdirishga ishlatiladigan neftli moylar.

3. YUqori voltli ishlatiladigan neftli moylar.

Neftli EI-moylarni odatda neftdan olinadi.

Neftdan bir necha marotaba tozalab solyarka olinadi. Unda sulfat kislotasi yoki ishqor qo'shib, uni kimyoviy birikmalardan tozalab, quritadilar. Undan keyin filtrlar

yordamida tozalab transformatorlar, kondensatorlar va kabellar uchun kerakli moylar hosil qilinadi.

Neftli elektr izolyasion moylari qovushqoqliklari bilan bir-biridan farq qiladi. Masalan, MN-4 tipidagi moylarning η kichik bo'lib, ular kabellarda ishlatiladi.

Qovushqoqligi o'rtacha bo'lgan S-110 va S-220 tipidagi moylar 110 kV ishlaydigan yuqori kuchlanishli kabellarda ishlatiladi.

35 kV da ishlaydigan qog'ozli izolyasiyali kabellar uchun neftli moylarga konifol qo'shib ishlatadilar, chunki, konifol η ning ko'paytiradi.

Neftli moylar ham oksidlanadi va eskiradi. Masalan, ular yuqori temperaturalarda ishlaydi, yuqori elektr maydoni ta'sir qiladi, ular havo va metall bilan to'qnashishlari mumkin. Alohida qayd qilish kerakki, mis, latun, temir, suv moylarning eskirishini tezlashtiradi.

Neftli elektroizolyasion moylarining o'zlariga xos kamchiliklari bor. Masalan, ular yonuvchi, E kichik, ular parlarning biridan yonish, ya'ni chaqnash temperaturasi uncha katta emas.

Sintetik suyuq dielektriklar bu kamchiliklardan xolidirlar.

Sintetik suyuq dielektriklar guruhiga quyidagilar kiradi:

Sovollar, sovtollar, geksoollar, kremniyorganik suyuq dielektriklar.

Sovollar – defenil kristallining ($N_5S_6-S_6N_5$) xlorlangan eritmasi bo'lib, qutblangan moddadir. YA'ni, defenildagi vodorod reaksiya davomida xlorga almashtiriladi. Agar 3 va undan ortiq N_2 o'rniga xlor atomlari joy olsa, maxsulot moysimon bo'ladi.

Sovolda N_2 ning besh atomi xlor atomlariga almashtirilgan, natijada pentaxlordefenil $CL_3N_2C_6 - C_6H_3Cl_2$ hosil bo'ladi. Demak, sovol deganda pentaxlordefenil tushuniladi.

Formuladan ma'lumki, uning molekulalari nosimmetrik joylashgan, shuning uchun u qutbli dielektrik hisoblanadi. Sovolning $E=5,2$ bo'lib, izolyasion qog'ozning E ga teng. SHuning uchun sovol moyi bilan shimdirilgan qog'ozning E katta bo'ladi, bu kondensator sig'imini ko'paytiradi.

$$C = \frac{\varepsilon \varepsilon_0 S}{d} \quad (12.)$$

Sovolning asosiy afzalligi – uning yonmasligidir. Ammo 5°S da sosol va uning $\eta=2,9 \cdot 10^{-4} \text{ m}^2/\text{s}$ ga yetadi. Neftli moylar uchun esa $\eta=3 \cdot 10^{-5} \text{ m}^2/\text{s}$ dir. Demak, xona temperaturasida qog'ozlarni sovol bilan shimdirib bo'lmaydi, chunki uning moylarnikiga nisbatan nihoyatda katta. SHuning uchun uni 50°S qizdirish kerak bo'ladi.

Sovolning yana bir kamchiligi – uning zaharliligidir, chunki uning atomida xlor atomlari bor.

Sovolning η kamaytirish va yonmasligini saqlash uchun uning suyultirgichi – trixlorbenzol $\text{C}_6\text{H}_3\text{Cl}_3$ ishlab chiqilgan.

Sovtollar. 64% sovol 36% trixlorbenzol $\text{C}_6\text{H}_3\text{Cl}_3$ aralashmasini sovtol deyiladi.

90% sovol va 10% trixlorbenzol aralashmasini geksol deyiladi.

Sovollar, sovtallar va geksolning asosiy tavsifnomalari quyidagilardan iborat:

Asosan qattiq dielektriklar guruhiga quyidagilar kiradi:

1. Plastmasadan tayyorlangan barcha materiallar
2. Rezinalar (lok va bo'yoqlar eliktrizolyasion materiallar sifatida)
3. SHisha
4. Sopol
5. Qog'oz, karton, fibra va b.

Plastmassalar – bu polimerlar bo'lib, ularda kerakli xossalarni shakllantirish uchun to'ldirgichlar, plastifikator (yushmatgich)lar, stabilizatorlar, ranglar va b. kiritilgan bo'ladi.

Plastmassalar odatda ikki xil: termoplastik va termoreaktiv plastmassalar bo'ladi.

Termoplastlar – polimerlar bo'lib, ularni qizdirilganda kimyoviy ko'ndalang aloqalar vujudga kelmaydi, har bir polimerga xos bo'lgan temperaturada ko'p marotaba yumshab, qattiq holatdan plastik holatga o'tadi va qolip shaklini oladi, osongina deformatsiyalanadi, erituvchi suyuqliklari ta'sirida (yuqori temperaturalarda) oson eriydi. PE, PP, PS, PVX, PMMA, PA, ftoroplast va b. termoplastik polimerlardir.

Ulardan nafaqat plyonka va tunukalar, balki geometrik andozalari katta bo'lgan elektrotexnik materiallari yaratiladi.

Termoreaktiv polimerlar - bu shunday polimerlarki, ularni tayyor shaklda qizdirilganda yumshash qobiliyatiga ega emaslar. YA'ni qizdirilganda qattiq holatga o'tib, egiluvchanlik va eruvchanlik xususiyatlarini yo'qotadi. Fenoloformaldegid katronlari (rezol va novolak), shuningdek, poliefir va epoksid katronlari termoreaktiv polimerlardir. Ular asosan polikondensasiya reaksiyalari yo'li bilan hosil qilinadi.

SHuni alohida ta'kidlash kerakki, polikondensasiya reaksiyalari natijasida olingan dielektriklarning elektroizolyasion xossalari polimerizasiya reaksiyalari orqali olingan dielektriklar (PE, PP, PS, PXV, va b)ga nisbatan pastroqdir. Buning asosiy sababi shundaki, polikondensatsiya reaksiyalari orqali olingan dielektriklarda hamma vaqt ko'shimcha moddalar (suv, kislota, gazlar) bo'lib, ular ionlarga bo'linib, materialning elektr o'tkazuvchanligini ortishiga sabab bo'ladi.

Qizishga chidamli plastmassalar guruxiga ftoroplast – 4 va polimidlar kiradi.

2. Alohida guruxni rezinalar, laklar va bo'yoqlar tashkil etadi. Ko'pincha ular elektroizolyatsion materiallar sifatida keng qo'llaniladi.

3. SHisha, sopol, karton, fibra, qog'oz alohida qattiq dielektriklar guruxini tashkil etadilar.

Qattiq dielektriklar o'zlarining elektr o'tkazuvchanliklari bo'yicha quyidagi guruhlarga bo'linadilar.

1. Elektron o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan materiallar. Bu guruhga o'tkazgichlar (metallar va ularning qotishmalari), yarimo'tkazgichlar va boshqalar kiradi.

2. Ion o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan materiallar. Bu guruhga shisha, sopol va boshqalar kiradi.

Dielektrikka berilgan kuchlanish qiymati oshira borilganda tok oqimi yuksalib, elektr energiyasining isrofi ko'payadi. Elektr izolyasiyasi o'ta yuqori kuchlanishga bardosh bera olmaydi. Kuchlanish qiymati ortib borishi natijasida dielektrikda teshilish sodir bo'ladi. Teshilish paytida dielektrikda o'ta o'tkazuvchan kanal paydo bo'lib, elektrodlarning qisqa to'tashuviga olib keladi. Dielektrikning teshilgan qismida erish,

kuyish, yorilish va hokazolarni kuzatish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, elektr maydonida joylashgan dielektrik o'z izolyasion xususiyatini elektr maydon kuchlanganligining ma'lum qiymatida yuqotadi.

Dielektrikning teshilish lahzasidagi kuchlanish teshilish kuchlanishi (U_T) deyiladi. Elektr maydonining shu lahzaga mos keluvchi qiymati esa, dielektrikning elektr mustahkamliligi (E_T) deyiladi. Dielektrikning elektr mustahkamligi teshilish kuchlanishining dielektrikning teshilish joyidagi qalinligi (h)ga nisbatan bilan aniqlanadi:

$$E_T = \frac{U_T}{h} \quad (13.)$$
$$[E_T] = [e / m]$$

SHuni etiborga olish kerakki, teshilish natijasida dielektrikdan katta tok o'tib, elektrotexnika uskunasi ishdan chiqadi. Quvvatli generator, transformator, dvigatellar va kabellarda izolyasiya teshilish energetik sistema uchun jiddiy falokat hisoblanadi. SHuning uchun teshilish nima sabablardan kelib chiqishi, izolyatsiya kuchlanishning qanday qiymatini ushlay olishini bilish muhandislik amaliyoti uchun nihoyatda zarurdir.

Qattiq dielektriklarning teshilishi quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Makroskopik jihatdan bir jinsli dielektriklarning elektrik teshilishi.
2. Bir jinsli bo'lmagan dielektriklarning elektrik teshilishi.
3. Issiklik (elektr-issiklik) ta'siridan teshilishi.
4. Elektr-kimyoviy teshilish.


Bir jinsli dielektriklarning elektrik teshilish nihoyatda tez ($10^{-7} - 10^{-8}$ s) sodir bo'ladi. Bunda qattiq hajmdagi elektronlar elektron kuchi hosil qiladi. Bu teshilish turi o'z tabiati jihatidan sof elektron jarayonga kiradi. Elektronlar elektr maydonda olgan energiyalarini o'z harakatlari davomida tarqatadi va kristall panjaraning qayishqoq tebranishini ta'minlaydi. Muayyan kritik tezlikka erishgan elektronlar yangidan yangi elektronlarni uzib chiqarib, muvozanat holatini buzadi, ya'ni qattiq jismda elektronlarning urilishi tufayli ionlanish sodir bo'ladi.

Bir jinsli elektr maydonida joylashtirilgan bir jinsli dielektrik teshilishdagi maydon kuchlanganligi jismning elektr mustahkamligini aniqlaydigan kattalikdir.

Bunday holat ishqor – galond birikmali monokristallarda va ba’zi polimerlarda kuzatilib, ularning elektr mustahkamligi bir necha MV/m ga yetadi.

SHuni alohida ta’kidlash kerakki, elektr maydonning turi, (ya’ni bir jinsli yoki bir jinsli bo’lmagan maydon) dielektrikning elektr mustahkamligiga katta ta’sir ko’rsatadi (1-rasm). Bu rasmdan ko’rinadiki, texnik shishaning teshilish kuchlanishi nafaqat shishaning qalinligiga, balki maydon turiga ham bog’liqdir. Bir jinsli maydonda o’lchangan U_{TM} bir jinsli bo’lmagan maydonda o’lchangan U_{TM} qiymatidan katta bo’ladi (2-egri chiziq). Dielektrikning qalinligi ortishi bilan uning tarkibida o’zgarishlar sodir bo’lib, gaz bo’shliqlari soni ortishi natijasida uning elektr mustahkamligi sezilarli darajada pasayadi.


6-rasm.



Texnika shisha teshilish kuchlanishining uning qalinligiga bog’liqdir($f=50$ Gts).

Alohida ta’kidlash kerakki, elektrodning yuzasi ham dielektrikning elektr mustahkamligiga katta ta’sir ko’rsatadi. Agar elektrodning yuzalari kichik bo’lsa, maydonning ta’sir yuzasi kamayadi, dielektrik tarkibidagi nuqsonlar soni ozayib, uning elektr mustahkamligi orta boradi.

Temperatura ham dielektrikning elektr mustahkamligiga katta ta’sir ko’rsatadi. Uncha katta bo’lmagan T larda E_T qiymatining pasayishi kuzatiladi



7-rasm.

Bu dielektrikda issiqlikdan teshilish jarayoni sodir bo’lishi bilan tushuntiriladi.

Ma'lumki izolyasion material sifati g'ovak dielektriklar (masalan, yog'och, karton, qog'oz, g'ovak, sopol va b) keng ishlatiladi. Ularning elektr mustahkamligi havoning elektr mustahkamligiga yaqin bo'ladi. Agar qattiq dielektrikdagi bo'shliqlar to'latilsa (masalan, suyuq dielektrikni shimdirish orqali), uning elektr mustahkamligini keskin ortadi. Bu esa jism tarkibidagi havo va gaz bo'shliqlarining qisib chiqarilishi evaziga sodir bo'ladi.

MAVZU №4. YUKORI KUCHLANISH TEXNIKASIDA GAZLI IZOLYATSIYA.

Mavzu rejasi:

1. Gazlarning fizik xolati va umumiy xarakteristikalar.
2. Gazlardagi razryadlanish va ionlanish turlari.
3. To'knashuv ionlanish koefitsientlari.
4. Gazdagi fotoionlanish jarayoni kiymatining oralik masofaga, gaz bosimi va xaroratiga boglanishi.
5. Gazda va elektrodlar sirtida razryadlanish va ionlanish jarayonlari.
6. Bir jinsli va bir jinsli bo'lmagan maydonda razryadlanishning musta-killik sharti.
7. Pashen konuni.

Foydalaniladigan adabiyotlar.

1. Elektrotexnik spravochnik. 3-tom, kniga pervaya, razdel 38. (Pod obshey redaktsiey professorov MEI) M.: Energoatomizdat, 1988.
2. Texnika visokix napryajeniy. Pod obshey red. D.V. Razevige, M.: Energiya, 1991.

1. Gazlardagi razryadning turlari va borishi. Barcha gazlar normal sharoitda yaxshi izolyatordir. Buning sababi, ularda erkin harakatlanuvchi elektr zaryadlarning yo'qligidir. Agar izonizatorlar yordamida gazda ionlar hosil qilinsa, u o'tkazgichga aylanadi. Gaz orqali elektr toki o'tish xodisasiga gaz razryadi deyiladi.

YUqorida aytib o'tganimizdek, tashqi elektr maydon bo'lganida ionlashgan gazda musbat hamda manfiy ionlar va elektronlarning tartibli harakati elektr tokini xosil qiladi.

Tashqi omillar (qizdirish yoki α , β , γ , rentgen, ultrabinafsha nurlari) ta'sirida vujudga kelishi natijasida gazda kuzatiladigan elektr tokini nomustaqil gaz razryadi deyiladi.

Kuchli elektr maydon ta'sirida gazda o'z-o'zidan ionlashish boshlanadi, buning natijasida ionizator bo'lmaganida ham gazlardan elektr toki o'tishi mumkin.

Elektrodlar orasida elektr ta'sirida vujudga keladigan zaryad tashuvchilar tufayli kuzatiladigan gazlardagi elektr toki mustaqil gaz razryadi deyiladi. SHunday qilib, nomustaqil va mustaqil gaz razryadlarning kuzatilishi katod va anod orasidagi kkuchlanishga bog'liqdir.


Gaz razryadidagi tok kuchi I ning elektrodlar orasidagi kuchlanish V ga bog'lanishini tekshirish uchun sxematik tasvirlangan qurilmadan foydalanamiz. Manfiy K va musbat A elektrodlar orasidagi gaz I ionizatorning rentgen nuri ta'sirida bo'lsin. K va A elektrodlar orasidagi kuchlanish P potensiometr yordamida boshqarilib, V voltmeter bilan o'lchanadi. Gaz razryad toki juda kichik bo'lgani uchun sezgir G galvanometr bilan o'lchanadi.

10.8-rasmda gazdagi tok kuchi I ning elektrodlar orasidagi kuchlanish V ga bog'lanish grafigi berilgan. Grafikdan ko'rinadiki, kuchlanish uncha katta bo'lmaganida (kuchlanishning 1- soxasi) nomustaqil gaz razryadi xosil bo'lib, gazdagi tokning kuchi xuddi elektrolitlardagidek kuchlanishga proporsionaldir.

Gazli izolyatsiyalarda muhit parametrlarining teshilish kuchlanishiga bog'likligini Pashen qonuni belgilab beradi. Bu qonunga ko'ra bir jinsli gaz muhitda teshilish kuchlanishi gazli muhitning bosimi bilan elektodlar orasidagi masofaning ko'paytmasiga bog'liq ravishda o'zgaradi. YA'ni, oraliq almashtirishlarni tashlab yuborib Pashen qonunini matematik ifodasini yozamiz:

$$E_{meu}^* = f(p \cdot S) \quad (14.)$$

Bu bog'liqlikni grafik ko'rinishi quyidagi rasmda berilgan



8-rasm. Pashen qonuniga oid egriliklar

SHunday qilib teshilish kuchlanishini quyidagi ifodadan aniqlash mumkin.

$$U_{meu} = a \cdot p \cdot S + b \sqrt{p \cdot S} \quad (15.)$$

Bu erda, $a=E/p$ -chegaraviy koefitsientdeb ataladi.

1. Gazlarning fizik xolati va umumiy xarakteristikalari.
2. Gazlardagi razryadlanish va ionlanish turlarini sanab bering.
3. To'knashuv ionlanish koefitsienti nima?
4. Gazdagi fotoionlanish jarayoni kiymatining oralik masofaga, gaz bosimi va xaroratiga bog'liqligi.
5. Gazda va elektrodlar sirtida razryadlanish va ionlanish jarayonlari.
6. Bir jinsli va bir jinsli bo'lmagan maydonda razryadlanishning mustakillik shartini aytib bering.
7. Pashen konunini ta'riflab bering.

Tayanch iboralar. Teshilish, elektr mustahkamligi, mustaqil razryad, nomustaqil razryad, chegaraviy koefitsient.

MAVZU №5. NOMUSTAQIL GAZ RAZRYADI.

Mavzu rejasi:

1. Nomustaqil razryadida ionlanish jarayoni.
2. Gazsimon dielektriklarning elektr utkazuvchanligi
3. Gazsimon dielektriklarning elektr teshilishi.

Foydalaniladigan adabiyotlar.

1. Elektrotexnik spravochnik. 3-tom, kniga pervaya, razdel 38. (Pod obshey redaktsiey professorov MEI) M.: Energoatomizdat, 1988.
3. Texnika vysokix napryajeniy. Pod obshey red. D.V. Razevige, M.: Energiya, 1991.

Nomustaqil gaz razryadi o'tkazuvchanlik nazariyasini elektrolitlarnikiga o'xshashligidan foydalanib qarab chiqamiz. Faraz qilaylik, ionizator ta'sirida gazning hajmi birligida vaqt birligi ichida har bir ishorali ionlardan Δn_0 dona hosil bo'lsin. Teskari jarayon – ionlarning molizatsiyasi (yoki ba'zida aytilishicha ionlar rekombinatsiyasi) hajm birligidagi musbat ionlar soni n_+ ga ham, manfiy ionlar soni n_- ga ham proportsional.

Malumki, gazlarda miqdor jihatdan teng musbat ionlar hosil bo'lgani uchun $n_+ = n_- = n_0$ bo'lsin. Bu holda vaqt birligi ichida birlik hajmda molizatsiyalanuvchi ionlar soni:

$$\Delta n'_0 = \beta n_+ n_- = \beta n^2_0. \quad (16.)$$

bo'ladi. Bunda: β – molizatsiya koefitsienti. (10.18)dan gazning hajm birligidagi bir xil ishorali ionlar soni n_0 quyidagiga teng bo'ladi:

$$n_0 = \sqrt{\frac{\Delta n'}{\beta}} \quad (17.)$$

Gaz razryadida elektrodlanga yetib kelgan ionlar ularga o'z zaryadini beradi va neytrallanadi. SHunday qilib, ionlar soni neytrlanishi hisobiga ham yo'qola boshlaydi. Uvaqtda, tok o'tishi natijasida vaqt hamda hajm birligida neytrlashgan ionlar soni $\Delta n''$ quyidagiga teng bo'ladi:

$$\Delta n'' = \frac{I}{esl} = \frac{j}{el} \quad (18.)$$

Bunda: I – tok kuchi, j – tok kuchini zichligi, e – ion zaryadi, s – elektrod plastinkasining yuzi, l – elektrodlar oralig'i.

Agar gazdagi tokning kuchi doimiy qolsa ($I = \text{const}$),

$$\Delta n_0 = \Delta n'_0 + \Delta n''_0. \quad (19.)$$

Muvozanat sharti bajariladi. (17) va (19) ni (18) qo'yilsa:

$$q \Delta n_0 = \beta n_0^2 + \frac{j}{el}. \quad (20.)$$

Bu tenglama $I = f(U)$ grafik kuchlanishining 1, 2, 3 – sohalariga tegishlidir. Bunda ikkita chegaraviy holni qarab chiqamiz.

Gazsimon dielektriklarning elektr utkazuvchanligi. Ma'lumki, gazlar zaryadlangan zarrachalardan, ya'ni elektron va ionlardan tashkil topilgan. Ularda qattiq va suyuq moddalarning aralashmalari ham mavjud.

Havoda zaryadlangan zarrachalar quyosh va kosmik nurlar ta'sirida, ernaing radioaktiv nurlanishi va b. Ta'sirlar natijasida paydo bo'ladi. Natijada gazlarda ionizasiya xodisasi ro'y beradi.

Agar kondensator katlamlari orasida gazni joylashtirib, unga kuchlanish berilsa, zaryadlangan zarrachalarga maydon kuchlanganligi, ya'ni elektr kuchi ta'sir qiladi. Bu kuchlar ta'sirida elektronlar va ionlar bir elektroddan ikkinchisiga harakat qiladilar. Natijada gazda elektr toki vujudga keladi.

Agar zaryadlangan zarrachalar miqdori ko'p bo'lsa, elektr kuchlar ta'sirida ular katta tezlikka ega bo'ladi, demak gazdagi tok ham ko'payadi.

Gazsimon dielektriklarning volt-amper tavsifnomasi quyidagicha bo'ladi (1-rasm). Bir oblastda ko'paygan sari proportsional ravishda ko'payadi. Demak, Om qonuni bajariladi:

$$I = \frac{U}{R} \quad (21.)$$

Agar U yanada ko'paytirsak (II oblast), bu qonuniyat buziladi, ya'ni uzgarmay qoladi. Buning ma'nosi shuki, elektron va ionlar ta'sirida energiya yig'adilar.

Agar yanada ko'paytirsak (III oblast), zaryadlangan zarrachalarning tezligi birdaniga ko'payadi, ular neytral zarrachalar bilan to'qnashadilar va natijada yangi zaryadlangan zarrachalar paydo bo'ladi. Bu hodisa tez amalga oshadi va uni zarbiy ionizatsiya deyiladi. III oblastda, ya'ni zarbiy ionizatsiya natijasida birdaniga ko'payib ketadi.

Zarbiy ionizatsiya hodisasi ro'y berganda gazning solishtirma xajmiy qarshiligi ρ_v va isroflar tangens burchagi $\text{tg } \delta$ birdaniga kamayadi.


Gazlarda ρ katta bo'lib $\rho \approx 10^{18} \text{ Om} \cdot \text{m}$, $\text{tg } \delta$ esa, kichik $\text{tg } \delta \approx 10^{-6}$ bo'ladi.

Gazlarni odatda $U \ll U$ zarbiy ionizatsiya bo'lgan oblastda ishlatiladi.

Gazsimon dielektriklarning elektr teshilishi.

Gazsimon dielektriklarning teshilishi Pashen qonuniga asosan belgilanadi:

(9-rasm)



Bu erda U_T - gaz qatlamining teshilish kuchlanishi.

R - gazning bosimi.

h - gazlarda elektrodlar orasidagi masofa

A - koeffitsient.

R_h ko'paygan sari U_T ham ko'payadi (grafikda o'ng tomon). Ammo R_h kamaysa, U_T ham kamayib, minimum orqali o'tadi.

Buning ma'nosi shuki, suyultirilgan gazlar oblastida atom va molekulalar miqdori birdaniga kamayadi, demak, gazlarda zarbiy ionizasiya katta Ular ta'sirida vujudga keladi.

Agar maydon bir jinsli bo'lsa, gazlarning teshilishi uchqun shaklida paydo bo'ladi. Agar maydon bir jinsli bo'lmasa, teshilish bir qator oraliq vaziyatlar orqali ro'y beradi. YA'ni avval gazning qatlami to'la parchalanmaydi. Ammo U ko'payishi bilan gazda elektr toj ochiq binafsha rangda paydo bo'ladi.

Elektr toj ro'y bergan vaqtda «CHars-charslar» kuzatiladi va havoda ozon gazi O_3 va azot oksidi NO paydo bo'ladi. Bu gazlar ta'sirida metallar oksidlanadi, plastmassa, rezina va b. organik elektr izolyasion materiallar parchalanadi. Ularning sathidan tirqish va yorishmalar paydo bo'ladi.

Amalda ko'pincha bir jinsli bo'lmagan maydonlar yuz beradi. Masalan, ikkita katta U-ga ega bo'lgan liniyalar orasidagi maydon, o'tkazgich va simcho'p orasidagi maydon va b. bir jinsli bo'lmagan maydonlar hisoblanadi. Bundan tashqari, elektrodlar orasidagi maydonlar ham bir jinsli emas, chunki ularning razmeriga ham bog'liq. Masalan, igna-igna; igna-tekislik va x.

NAZORAT SAVOLLARI.

1. nomustaqil razryadida ionlanish jarayoni.
2. Gazsimon dielektriklarning elektr utkazuvchanligi
3. Gazsimon dielektriklarning elektr teshilishi.

Tayanch iboralar. Elektr teshilish, nomustaqil razryad, ionlanish jarayoni,

MAVZU №6. O'TA KUCHLANISHLI TARMOQLARDA TOJ RAZRYADI.

Mavzu rejasi:

1. O'zgarmas va o'zgaruvchan tokdagi elektr tojlanish razryadlari.

2. Tojlanish razryadlanishda kuvvat isrofgarchiligi va uning ob - xavo sharoitiga bog'liqligi.

4. Faza simlari sonini elektr tojlanish razryadi xossalriga ta'siri.

Foydalaniladigan adabiyotlar.

1. Elektrotexnik spravochnik. 3-tom, kniga pervaya, razdel 38. (Pod obshey redaktsiey professorov MEI) M.: Energoatomizdat, 1988.
2. Texnika visokix napryajeniy. Pod obshey red. D.V. Razevige, M.: Energiya, 1991.

Toj razryadi mustaqil gaz razryadi bo'lib, maydon kuchlanganligi bir jinsli bo'lmagan muhitlarda vujudga keladi. Bunday muhitga EUY atrofidaagi maydon misol bo'la oladi. EUY larda o'tkazgichlar ko'p simli ko'rinishda bo'lib yuzalari notekis bo'ladi va bunday yuzalarda maydon kuchlanganligi o'ta notekis bo'ladi. TSilindrik ko'rinishdagi sim yuzasida toj razryad vujudga keladigan elektr maydon kuchlanganligi Pik formulasidan aniqlash mumkin:

$$E_0 = 24,5 \cdot \delta \cdot \left[1 + \frac{0,65}{(\delta \cdot r_0)^{0,38}} \right]; \quad (22.)$$

Simning radiusi kata bo'lmagan ($r_0 < 1 \text{ cm}$) bu ifodani quyidagicha yozish mumkin:

$$E_0 = 30,3 \cdot \delta \cdot \left[1 + \frac{0,65}{\sqrt{\delta \cdot r_0}} \right]; \quad (23.)$$

